



# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO  
MUHANDISLIK-  
TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI



## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON  
Iyun-iyul

INDUSTRY  
4.0



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

## Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

## Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

## Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

## Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK  
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH  
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

***MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI***





# KREMNIYORGANIK POLIMER KOMPOZITSIYALAR ASOSIDA TERMOBARQAROR BO'YOQ OLİSH IMKONIYATLARI

Xoliqova Gulhayo Qo'Idoshevna

Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti o'qituvchisi

Raximov Firuz Fazlidinovich

Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti o'qituvchisi

Nurilloyev Zafar Ismatilloyevich

Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yangi tarkibli kremniy organik polimer sintezi va sintez qilingan moddaning infraqizil spektroskopik tahlili keltirilgan. Sintez qilingan polimer asosida termobarqaror kompozitsiya tarkibi tahlil qilingan. Olingan bo'yoq kompozitsyaning sanoatda qo'llanilishi natijasida termobarqaror bo'yoqlar olish imkoniyatlari o'r ganilgan. Shuningdek, olingan bo'yoq kompozitsyaning termobarqarorligini o'r ganish natijasida 440 oC haroratda kompozitsiyada termik destruksiya boshlanishi aniqlangan. Ushbu haroratdagi destruksiyaning sabablari o'r ganilgan. Tahlillar natijasi olingan bo'yoq kompozitsiya termobarqaror xossalni ekanligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** temobarqaror bo'yoq, kremniyorganik polimer, gidroxinon.

**Abstract:** This article presents the synthesis of a new organosilicon polymer and infrared spectroscopic analysis of the synthesized substance. The composition of a thermostable composition based on the synthesized polymer was analyzed. As a result of the industrial use of the resulting paint and varnish composition, the possibility of obtaining heat-stable paints was studied. Also, as a result of studying the thermal stability of the resulting paint and varnish composition, it was established that the thermal destruction of the composition begins at a temperature of 440 °C. The causes of destruction at this temperature have been studied. As a result of the analysis, it was established that the resulting paint and varnish composition has a thermostable property.

**Key words:** heat-resistant paint, silicone polymer, hydroquinone.

**Аннотация:** В данной статье представлен синтез нового кремнийорганического полимера и инфракрасный спектроскопический анализ синтезированного вещества. Проанализирован состав термостабильной композиции на основе синтезированного полимера. В результате промышленного использования полученной лакокрасочной композиции изучена возможность получения термостабильных красок. Также в результате изучения термостабильности полученного лакокрасочного состава установлено, что термодеструкция состава начинается при температуре 440 оС. Изучены причины деструкции при этой температуре. В результате анализа установлено, что полученная лакокрасочная композиция обладает термостабильным свойством.

**Ключевые слова:** термостойкая краска, кремнийорганический полимер, гидрохинон.

## KIRISH

Jahonda sanoat sohasida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bino va inshootlarda yong'in chiqish xavfi yuqori bo'lgan materiallardan keng foydalanayotganligi sababli iqtisodiyotning turli sohalarida samarali olovga bardoshli vositalarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Shu sababli ham olovbardosh tarkiblарini olish va ularning fizik-kimyoviy xossalariни tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida yong'inlarni bartaraf etishda innovatsion yechimlardan foydalangan holda yangi olovbardosh tarkiblarni ishlab chiqish orqali yong'inlarni olish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1,2].

Respublikamizda yong'inlarni oldini olish maqsadida olovbardosh tarkiblarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda olovbardosh vositalariga bo'lgan taxminiy yillik ehtiyoj yong'inlardan keltirilgan moddiy zararni hisobga oladigan bo'lsak,



100 mlrd soʻmni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu olovbardosh moddalarini mahalliylashtirish, ularni amaliy va ilmiy jihatdan oʼrganish, standart talablariga javob beradigan darajaga yetkazish dolzarb muammolardan biri boʼlib qolmoqda[3,4].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Kremniyorganik polimer kompozitsiyalar asosida termobarqaror boʼyoq ishlab chiqarishga qaratilgan tadqiqotlar soʼnggi yillarda katta rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Xorijda bu sohada olib borilgan tadqiqotlar kremniyorganik polimerlarning yuqori issiqlik va kimyoviy chidamlilik xususiyatlarini koʼrsatdi. Misol uchun, Zhang va boshqalar kremniyorganik polimerlarning termobarqarorlik xususiyatlarini oʼrganib, ularning yuqori haroratlarda barqarorligini tasdiqladilar<sup>1</sup>. Xususan, ular polimerlarning tuzilishini oʼzgartirish orqali termik barqarorlikni oshirish imkoniyatlarini koʼrsatdilar.

Shuningdek, Singh va Bhasin kremniyorganik polimerlar asosida ishlab chiqilgan boʼyoqlarni tahlil qilib, ularning yuqori harorat sharoitida samarali ishlashini tasdiqladilar<sup>2</sup>. Ular, kremniyorganik polimerlarning yuzaga chiqadigan boʼyoqlar uchun yangi yondashuvlar va texnologiyalarni taklif qilishini taʼkidlashdi.

Oʼzbekistonda ham bu sohada tadqiqotlar olib borilmoqda. Asqarov va Rahimov Oʼzbekiston sharoitida kremniyorganik polimer kompozitsiyalarining termobarqaror boʼyoqlar sifatida qoʼllanilishi haqida maʼlumot berib, ushbu texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil etdilar<sup>3</sup>. Ularning tadqiqotlari kremniyorganik polimerlarning lokal sanoatda qoʼllanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochdi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qoʼllaniladigan usullardan foydalанилди. Kremniyorganik polimer kompozitsiyalar asosida termobarqaror boʼyoq olish imkoniyatlarini oʼrganishda umumiyligidan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalinish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalанилди.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda sanoat ishlab chiqarishi va xalq xoʼjaligining rivojlanib borishi bilan turli fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega boʼlgan samarali boʼyoqlar, antibakterial xususiyatga ega moddalar va termobarqaror polimer kompozitsion qoplamlarga boʼlgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Ularni qurilish sanoati, kimyo sanoati, tibbiyat, mashinasozlik, neft va gaz sanoati hamda boshqa sohalarda keng qoʼllash orqali issiqlikka chidamli qurilish materiallari va yongʼin xavfsizligini kamaytirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib hozirgi vaqtida eng koʼp qoʼllanilayotgan kremniyorganik birikmalar asosida termobarqaror boʼyoq moddalar assortimentini koʼpaytirish maqsadida tetraetoksisilan va gidroxinon asosida yangi turdagи polimer birikmalardan foydalанилди.

Gidroxinon (1,4 digidroksibenзол), paradioksibenзол, C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>(OH)<sub>2</sub> – organik birikma, ikki atomli fenol, rangsiz kristall modda issiq suv, spirt, efirda yaxshi, benzolda yomon eriydi. Gidroxinonning suvdagi eritmasi havoda oksidланади va qoʼngʼir tusga kiradi, ishqorly muhitda oksidланishi tezlashadi. Oksidlanganda xingidron va paraxinon hosil boʼladi. Gidroxinonning ushbu xususiyatlaridan foydalаниб fotografiyada – antioksidant, organik boʼyoqlar sanoatida – yarim xomashyo sifatida va analitik kimyoda – turli elementlar hamda birikmalarini aniqlashda ishlatiladi[5].


Fenollar elektrofil almashinish reaksiyalarida juda faol boʼlgani uchun kislotalar yoki asoslar ishtirokida kuchsiz elektrofillar – aldegid va ketonlar bilan ham reaksiyaga kirishadi[6,7].

Reaksiyon jarayonni olib borish uchun dastlab natriy slikatdan metasilikat kislota sintez qilish maqsadida xlorid kislotadan foydalанилди. Hosil boʼlgan iviq choʼkma xlor ioniga sifat reaksiya bermaguncha distillangan suv bilan yuvaldi. Soʼngra metasilikat kislota sanoat ikkilamchi mahsuloti formalin aralashdirib turib aralashmaga gidroxinon qoʼshildi. Bunda aralashma dastlab quyuqlashib koʼk rangdan jigar rangga kirdi. Ustki qavati havoda oksidланishi hisobidan qoramir rangga boʼyala boshladи[8,9,10].


<sup>1</sup> Zhang Y., Liu H. & Wang J. (2019). “Thermal Stability of Silicon Organic Polymers and Their Applications in Coatings”. Journal of Polymer Science, 57(4), 453-467.

<sup>2</sup> Singh P. & Bhasin M. (2021). “Advancements in Thermally Stable Silicon Organic Polymers for High-Temperature Coatings”. Materials Science and Engineering, 88(2), 112-123.

<sup>3</sup> Asqarov T. & Rahimov N. (2022). “Kremniyorganik polimer kompozitsiyalarining Oʼzbekiston sharoitida termobarqaror boʼyoqlar sifatida qoʼllanilishi”. Oʼzbekiston kimyo jurnali, 15(3), 78-85.



Olingen kremniyorganik moddani identifikatsiyalash maqsadida infraqizil (IQ) spektr 400-4000 sm<sup>-1</sup> intervalida (o'lchamlari – 4 sm<sup>-1</sup> sezuvchanlik, signal-shovqin nisbati – 60,000:1; skanerlash tezligi – sekundiga 20 spektr) KBr tabletkasida preslab "SHIMADZU" firmasining IRTtracer-100 rusmli spektrometrida qayd qilindi[6].



**1-rasm.** Sintez qilingan kremniyorganik birikmaning IQ spektri.


Yuqoridagi (1-rasm) IQ spektrda ham 3323,35 sm<sup>-1</sup> sohadagi yutilish spektri gidroxinon yadrosidagi O-H bog'ni ifodalaydi. 1018,41 sm<sup>-1</sup> Si – O bog'ining tebranish chastotasini, 1238,30 sm<sup>-1</sup> H2C-Ar bog'ining tebranish chastotasi, 1415,75-1381,03 sm<sup>-1</sup> sohadagi dublet yutilish spektri C-O bog'ni ifodalaydi. 1583,56 sm<sup>-1</sup> sohadagi yutilish spektri benzol yadrosidagi C=C bog'i mavjudligini ko'rsatdi. Aromatik halqadagi C-H guruhlarining yutilish spektrlari 659,66 sm<sup>-1</sup> sohada kuzatilgan[11,12].

**1-jadval.** Sintez qilingan kremniyorganik birikma asosida yaratilgan kompoziyaning ishlab chiqarishdagi nisbatlari.

T/r	Optimal nisbat umumi massaga nisbatan 3 %	Ammoniy polifosfat	Suyuq shisha
1	Gidroxinon + metasilikat	90	7
2		80	17
3		70	27



Yaratilgan kompozitsiya asosida olingan polimer bo'yoq kompozitsyaning dervotogrammasi 2-rasmda keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA) 1-egri chiziq va 2-egri chiziq termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) dan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) tahlili shuni ko'rsatadi, TGA egri chizig'i, asosan, 3 ta intensiv parchalanishdan iborat[13,14].



**2-rasm.** Yaratilgan bo'yoq kompozitsyaning termogravimetrik tahlili. 1-dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTA), 2- termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA).

Olingan polimer qoplamaning termik tahlilidan shuni ko'rishimiz mumkinki, asosiy massa kamayishi 1-parchalanish 26,2-242,59 °C temperatura oralig'ida kechadi. Unda asosiy massaning 7,67 % kamayishi kuzatiladi. 2-parchalanish 242,59-438,38 °C temperatura oralig'ida kechadi, unda asosiy massaning 36,525% kamayishi kuzatiladi. 3-parchalanish 438,38-801,12 °C temperatura oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 16,267 % yo'qoladi. 450 °C dan keyin o'zgarish deyarli kuzatilmaydi. Tadqiqotimiz natijasida olingan polimer qoplamaning asosiy massa yo'qotishi 2-parchalanish oralig'ida sodir bo'lishini ko'rsatadi[15,16].

Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i va termogravimetrik analiz egri chizig'ining bat afsil tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

**2-jadval.** Mikrokremnizon, polifosfat ammoniy va epoksidni smola asosida olingan polimer qoplamaning DTA va TGA egri chizig'i natijalarining tahlili.

Nº	Temperatura, °C	Yo'qotilgan massa, mgr(7,2)	Yo'qotilgan massa, %
1	100	0,145	2,01
2	200	0,221	3,07
3	300	0,563	7,82
4	400	2,65	36,80
5	500	3,02	41,94
6	600	3,34	46,39
7	700	3,54	49,17
8	800	4,17	57,92



Umuman olganda, bo'yoq material mexanik xususiyatlarini va termobarqarorligini oshirish uchun tarkibida kremniyorganik polimer, ammoniy polifosfat va shuyuq shisha asosida kompozitsiyadan foydalanilganda olingan bo'yoq moddaning termik xususiyatlari yaxshilanganligi va 440 °C da termik destruksiya boshlanishi aniqlandi. Ushbu jarayon gidroxinonning kremniyorganik bog'lari uzilishi hisobiga vujudga keladi. Bu, o'z navbatida, olingan bo'yoq kompozitsiyaning termobarqaror xossalii ekanligiga asos bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada kremniyorganik polimer kompozitsiyalar asosida termobarqaror bo'yoqlarni ishlab chiqarishning imkoniyatlari va ahamiyati tahlil qilindi. Kremniyorganik polimerlar, ularning yuqori issiqlik barqarorligi va kimyoviy chidamliligi tufayli bo'yoq sanoatida yangi imkoniyatlar yaratildi. Tadqiqotlar ko'sratganidek kremniyorganik polimerlarning termobarqaror bo'yoqlar sifatida qo'llanilishi yuqori harorat sharoitida samaradorlikni oshiradi va uzoq muddatli ishlash imkoniyatini ta'minlash imkoniyatiga ega.

Maqolada kremniyorganik polimerlarning asosiy xususiyatlari, ularning bo'yoq sifatida qo'llanilishidagi afzalliliklari va mavjud texnologiyalar ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'satmoqdaki, kremniyorganik polimerlar asosida termobarqaror bo'yoqlar ishlab chiqarish texnologiyalari sanoat ehtiyojlarini qondirishda va atrof-muhitni himoya qilishda katta potensialga ega. Kelgusi tadqiqotlar va texnologik rivojlanish bu borada yanada samarali yechimlar taklif etishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Rakhimov F.F. Organosilicon Polymer Compositions for Building Materials //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 24. – С. 8-12.
- Rakhimov F.F. and V.N. Akhmedov. Physico-chemical analysis of polyvinylethyne triethoxysilane ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal India Issue 10." (2021): 1782-1787.
- Рахимов Ф.Ф., Ахмедов В.Н., Аминов Ф.Ф. Способ получения гидрофобных композиций Universum: химия и биология журнал 4(70) Москва 2020 63-65 с.
- Беков У.С., Рахимов Ф.Ф. Спектральный анализ кремнийорганических соединений на основе фенола // Universum: химия и биология. – 2021. – №. 5-2 (83). – С. 27-30.
- Rakhimov F.F., Ibodova S.I., Kholikova G.K. Synthesis of organosilicon polymer based on hydrolyzed polyacrylonitrile //International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. – С. 1-4.
- Аминов Ф., Рахимов Ф., Ахмедов В. Гидрофобизатор на основе мочевинаформальдегида и тетраэтоксилана // Збірник наукових праць ЛОГОС. – 2020. – С. 69-71.
- Рахимов Ф.Ф. Технология получение поливинилети нил триэтиксисила на основе тетраэтиксисилана // Universum: технические науки:электрон. научн. журн. 2021. 10(91). URL:<https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12347>
- Zhang Y., Liu H. & Wang J. (2019). "Thermal Stability of Silicon Organic Polymers and Their Applications in Coatings". Journal of Polymer Science, 57(4), 453-467.
- Singh P. & Bhasin M. (2021). "Advancements in Thermally Stable Silicon Organic Polymers for High-Temperature Coatings". Materials Science and Engineering, 88(2), 112-123.
- Asqarov T. & Rahimov, N. (2022). "Kremniyorganik polimer kompozitsiyalarining O'zbekiston sharoitida termobarqaror bo'yoqlar sifatida qo'llanilishi". O'zbekiston kimyo jurnali, 15(3), 78-85.



# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi .....	4
<b>Sadoqat Siddiqova</b>	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов .....	9
<b>Юлдашев Норбек Худайназарович</b>	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
<b>Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoev</b>	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi .....	19
<b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich</b>	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish .....	24
<b>Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
<b>Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович</b>	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices .....	37
<b>Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli</b>	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development .....	44
<b>Jafarova Khilola Khalimovna</b>	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения .....	48
<b>Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.</b>	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины .....	53
<b>Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли</b>	
Mustaqil ta'limiň tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
<b>Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna</b>	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish .....	66
<b>Saloydinov Aziz Avazovich</b>	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
<b>Akramova Obida Qosimovna</b>	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
<b>Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов</b>	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
<b>Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов</b>	
Туризм: типология и классификация.....	95
<b>Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна</b>	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
<b>Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi</b>	
Umumiyligi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
<b>Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna</b>	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari .....	114
<b>Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich</b>	
Kichik quvvatlari, energiya samarador shamlar turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
<b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov</b>	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ..... <b>Мухамадиева Зарина Баходировна</b>	127
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish ..... <b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li</b>	132
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов ..... <b>Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамалович, Комолов Руслан Илхомбекович</b>	136
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati ..... <b>Xayitov Sherbek Naimovich</b>	141
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilaniladigan gazlamalar tahlili ..... <b>Sayidova MaftunaHamroqul qizi</b>	148
Production of tomato paste ..... <b>Ergasheva Muhabbat Komil kizi</b>	153
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions ..... <b>Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna</b>	156
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari ..... <b>Avezova Shaxnoza Maximudjonova</b>	159
Dual ta'lilda keys texnologiyasini qo'llash ..... <b>Sariyev Rustam Bobomuradovich</b>	166
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ..... <b>Jumayev Bahodir Raxmatullayevich</b>	169
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli ..... <b>Tursunova F. J., G. R. Bozorov</b>	174
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar) ..... <b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	180
Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari ..... <b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	185
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish ..... <b>Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li</b>	190
Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rni ..... <b>Jafarova Hilola Xalimovna</b>	194
Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'pik so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi ..... <b>Muxtor Jamolovich Maximov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	198
Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili ..... <b>Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich</b>	207
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish ..... <b>Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li</b>	213
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish ..... .....	217
Buxoro viloyatida kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish yo'nalishida hududlar kesimida mavjud imkoniyatlar tahlili ..... <b>Musulmonova Shahlo Nasriddinovna</b>	223
Neft va gaz sanoati chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini tahlili ..... <b>Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Uzakbaev Kamal Axmet uli, O'rinnov Xurshid Xayridin o'g'li</b>	229
Blokcheyn tizimlarda kriptografik kalitlar uchun tasodifiy sonlarni generatsiyalovchi SuperCSPRNG algoritmi ..... <b>Nurullayev Mirxon Muhammadovich</b>	235
"Yashil" energetikaning o'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini baholash va ularni tahlil qilish ..... <b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, A.Y. Baqoyev</b>	241
Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari ..... <b>Xakkulov Eldar Xudoyberdiyevich</b>	247
Chiqindi gazlarni changli qo'shimchalardan tozalash ..... <b>Rayimov Zuhriddin Xayriddin o'g'li, Sattorova Gulnoza Tuymurodovna, Jamilova Niginabonu Qobil qizi, Qudratov Oston Hayrulla o'g'li</b>	251

# MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



Kremniyorganik polimer kompozitsiyalar asosida termobarqaror bo'yoq olish imkoniyatlari ..... 255  
**Xoliqova Gulhayon Qo'idoshevna, Raximov Firuz Fazlidinovich, Nurilloyev Zafar Ismatilloyevich**

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

### 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

